

INKLYUZIV TA'LIMNI HUQUQIY JIHATDAN MUSTAHKAMLASH VA INFRATUZILMAVIY SHART-SHAROITLARNI RIVOJLANTIRISH

*Toshkent shahar Tehnologiya menejment
kommunikatsiya instituti Pedagogika
psixologiya kafedrasи O'qituvchisi
Eshmamatova Sitora Tuyg'un qizi
Tehnologiya menejment kommunikatsiya
Instituti 22-4 guruh talabasi
Xayitova Aziza Lutfullayevna*

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lismizining huquqiy asoslari va uni yanada takomillashtirish masalalari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lismizning muassasalarida yaratilayotgan infratuzilmaviy imkoniyatlar, pedagogik jarayonni qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy texnologiyalar hamda ijtimoiy hamkorlikning o'rni yoritilgan. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalar bilan milliy amaliyot o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lismi, huquqiy asoslar, infratuzilma, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy tenglik, ta'lismi islohotlari.

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyoti inson kapitalini rivojlantirish, har bir shaxsning ta'lismi olish huquqini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Inklyuziv ta'lismi — bu faqat pedagogik jarayon emas, balki huquqiy, ijtimoiy va ma'nnaviy masalalarni o'z ichiga oluvchi keng qamrovli tizimdir. Bunday yondashuv orqali imkoniyati cheklangan bolalar ham o'z tengdoshlari qatori ta'lismi olishi, ijtimoiy hayotga moslashishi va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishi mumkin. Shu bois inklyuziv ta'lismi huquqiy jihatdan mustahkamlash va infratuzilmaviy shart-sharoitlarni yaxshilash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Bundan tashqari, inklyuziv ta'lismi joriy etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, har bir O'zbekiston fuqarosi, ularning jismoniy yoki psixologik holati qanday bo'lishidan qat'i nazar, erkin va sifatli ta'lismi olish huquqiga egadir. Shu maqsadda imkoniyati cheklangan yoshlarni maktabgacha ta'lismi muassasalariga keng jalb qilish, ularni zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish davlat tomonidan kafolatlangan. Bu esa nafaqat ta'lismi sohasida adolat tamoyillarini qaror toptiradi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham xizmat qiladi.

Inklyuziv muhitda bola o'zini boshqalardan ortiqcha yoki kam his qilmasligi lozim. U jismoniy imkoniyati cheklanganligi uchun o'zini siqib qo'ymasligi, jamoadagi faoliyatlarda erkin ishtiroy etishi uchun qulay sharoitlar yaratish zarur.

Masalan, sport maydonida zaif ko‘rvuchi bola yugurish paytida birovga tasodifan urilib ketsa, uning ustidan kulish emas, balki yordam berish, qo‘llab-quvvatlash madaniyatini shakllantirish muhimdir. Chunki mazax yoki kamsitish bolaning ruhiyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatib, uni jamoadan chetlanishga, o‘ziga yopilib qolishga majbur etadi.

Shu sababli, inklyuziv ta’limda nafaqat o‘quv dasturlarini moslashtirish, balki jamiyat a’zolarining ongida ham bag‘rikenglik, mehr-shafqat va hurmat qadriyatlarini mustahkamlash zarur. Ta’lim muassasalarida tarbiyachilar, pedagoglar, ota-onalar va bolalar o‘rtasida to‘g‘ri muloqot va hamkorlik bo‘lsa, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog‘lom tengdoshlari qatori o‘z qobiliyatlarini namoyon etishlari mumkin [1].

Inklyuziv ta’lim tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun normativ-huquqiy baza mustahkam bo‘lishi shart. O‘zbekistonda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Huquqiy mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlari:

- imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish;
- pedagoglarni inklyuziv ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlash va ularning mehnatini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;
- ta’lim muassasalarida inklyuzivlik darajasini baholovchi nazorat va monitoring tizimini shakllantirish;
- xalqaro normalarni milliy qonunchilik bilan uyg‘unlashtirish.

Bu choralar nafaqat huquqiy kafolatlarni ta’minlaydi, balki jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Huquqiy asoslar mustahkam bo‘lsa-da, amalda inklyuziv ta’lim samaradorligi infratuzilmaviy sharoitlarga bevosita bog‘liq. Shu sababli:

ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus jihozlar (ramplar, liftlar, Brayl yozuvidagi darsliklar, eshitish moslamalari) keng joriy etilishi lozim;

xalqaro tashkilotlar va xususiy sektor ishtirokida qo‘srimcha investitsiyalar jalb qilinishi infratuzilmani yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Bu sharoitlar imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni umumiyligi ta’lim muassasalariga integratsiya qilishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’limning asosiy prinsiplari insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Avvalo, insonning qadr-qimmati uning imkoniyatlari, jismoniy yoki aqliy qobiliyati bilan emas, balki shaxs sifatida mavjudligi bilan belgilanadi. Shuningdek, har bir inson fikrlash va his qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga haqlidir [4].

Bundan tashqari, har bir shaxs tabiatan eshitish, tushunish va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu uning ijtimoiy hayotda faol bo‘lishini ta’minlaydi. Insonlar bir-biriga muhtoj, shu bois to‘laqonli va samarali ta’lim jarayoni faqat hamkorlik asosida tashkil etilgandagina natija beradi. Har bir bola yoki o‘quvchi o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezadi.

Inklyuziv ta’limning yana bir muhim jihatni shundan iboratki, o‘quvchilar muvaffaqiyatga erishishida ularning nimalarni bajara olmasligi emas, balki nimalarni amalgalash oshira olishi asosiy mezon sifatida qaraladi. Hamkorlik qilish inson hayotini boyitadi, uni yanada mazmunli qiladi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim tizimi turli bosqichlarni o‘z ichiga oladi: maktabgacha ta’lim, umumiyligi o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi hamda olyi ta’lim muassasalari. Ushbu bosqichlarning barchasida asosiy maqsad — o‘quvchilarning ta’lim olishida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etish va ochiq, hamjihatlikka asoslangan ta’lim muhitini shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limni rivojlanish — inson huquqlarini ta’minalash, ijtimoiy tenglikni qaror toptirish va kelajak avlodning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishdir. Shu bois, huquqiy asoslarni mustahkamlash bilan birga infratuzilmaviy sharoitlarni ham kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda amalgalash oshirilayotgan islohotlar, xalqaro hamkorlik va mahalliy jamiyatning faol ishtiroki bu jarayonni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ainscow, M., & Messiou, K. (2018). Engaging with the views of students to promote inclusion in education. *Journal of Educational Change*, 19(1), 1–17.
2. Florian, L. (2019). On the necessary co-existence of special and inclusive education. *International Journal of Inclusive Education*, 23(7–8), 691–704.
3. Slee, R. (2019). Belonging in an age of exclusion. *International Journal of Inclusive Education*, 23(9), 909–922.
4. Miles, S., & Singal, N. (2020). The education of children with disabilities in low-income countries. *International Journal of Inclusive Education*, 24(14), 1515–1533.
5. Heckmann, F. (2021). Inclusive education as a human right: Policy, implementation and challenges. *European Journal of Education*, 56(4), 623–640.
6. Allan, J., & Harwood, V. (2022). Policy discourses of inclusive education: Global perspectives. *Educational Policy*, 36(2), 345–367.